

44. Nikulin S.I. Rossiyskoye ugolovnoye pravo. Obshaya chast. Pod. red. V.N. Kudryavseva i A.V. Naumova. M., 1997. S. 297.
45. Sergeyevskiy N.D. Russkoye ugolovnoye pravo. Chast obshaya. SPb. 2006. S. 163.
46. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi, <https://www.lex.uz/acts/163629>. Murojaat vaqti 01.01.2025-yil.
47. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi / nashr uchun mas'ul R.A. Muhiddinov va boshq.; mas'ul muharrir: N. To'ychiyev. T., 2010. 344-b.
48. Ochilov H. Jinoyat huquqi (umumiy qism): Savollar va javoblar. O'quv-uslubiy qo'llanma / mas'ul muharrir: prof. F. Taxirov. T., 2009. 85-b.
49. Rustomboyev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksiga sharh. Umumiy qism. T., 2016. 426-b.
50. O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksiga sharh. Mualliflar jamoasi. T., 2008. 83-b.
51. Struchkov N.A. O nakazanii, sisteme yego vidov i inqx merax ugolovno-pravovgo vozdeystviya. V sb. Aktualniye problemi ugolovnogo prava. M., 1988. S. 90.
52. Kommentaniy k Ugolovnomu kodeksu Rossiyskoy Federatsii / Pod. Obsh. Red d.yu.n., Predsedatelya Verxovnogo Suda RF V.M. Lebedeva. – 4-ye izd., prerab, i dop. M., 2005. S. 131.

## Article

# The concept of crimes against sexual freedom and integrity of minors

Murodillo K. KATTAKULOV <sup>1†</sup> <sup>1</sup> Independent researcher of the University of Public Security of the Republic of Uzbekistan E-mail:

kattakulov1987@mail.ru

\* Correspondence:

† Current address: Affiliation.

‡ These authors contributed equally to this work.

**Abstract:** Crimes against the sexual freedom and integrity of minors are among the most serious offenses, causing significant physical and psychological harm to victims. Combating these crimes requires not only strict legal measures but also effective social strategies. This article examines the concept and legal aspects of crimes against the sexual freedom and sexual integrity of minors.

**Materials and methods of research:** general scientific, including formal logical (analysis, synthesis, generalization, deduction and induction, abstraction, hypotheses), private scientific (observation, analysis of the content of documents).

**Results of the study and Conclusion:** A comprehensive analysis of crimes targeting the sexual freedom and sexual integrity of minors is conducted. The main focus is on the legal analysis of serious crimes such as sexual violence, paedophilia, and violence against children. The article studies the existing legislation and judicial practices in the criminal protection of minors, highlighting issues and deficiencies in this area. Additionally, the article discusses the latent nature of these crimes in society and the difficulties victims face when seeking help. Effective preventive measures and crime prevention strategies employed by law enforcement agencies are proposed. The article also includes recommendations on strengthening cooperation between parents, educators, and social services to prevent sexual violence crimes.

**Keywords:** sexual freedom, sexual inviolability, minors, crimes against sexual freedom, child protection, legislation, judicial practice.

## 1. Introduction (Kirish)

Jamoatchilik xavfsizligi shaharlarda yashash uchun yaroqlilikni baholashda muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Misol uchun, Economist Intelligence Unit (2021) tomonidan nashr etilgan eng so'nggi Obod Shaharlar Indeksi 2021 butun dunyo bo'ylab 60 ta shaharni to'rtta yo'nalishdan baholagan. Shunday yo'nalishlardan biri shaxsiy xavfsizlik bo'lib, u turli xil jinoyatlar yoki boshqa jamoatchilik xavfsizligi ko'rsatkichlarining tarqalishiga asoslanadi (1). Mazkur maqola mazmunida shaxsiy xavfsizlik deganda, shaxsning jinsiy daxlsizligi va jinsiy erkinlikka bo'lgan huquqlari kafolati nazarda tutilmoqda.

Yaqinda aniqlangan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, pedofiliya holatlarida shaxslarda to'satdan bolalarga nisbatan patologik qiziqish paydo bo'lishiga miyadagi buzilishlar sabab bo'lishi mumkin ekan. Demak, oldimizda miya buzilishining boshqa shakllari bilan og'rigan ayblanuvchilarga nisbatan qo'llaniladigan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash masalasi yoxud orttirilgan miya buzilishi (pedofiliya) bilan og'rigan ayblanuvchilarga jinoyatchilarga shartli hukm qilish (probatsiya)ni jazodan ozod qilish muvofiqligini muhokama qilish kabi muhim va qiyin savol bilan duch kelamiz (2).

Huquqni muhofaza qilish organlarining sa'y-harakatlari va qonunchilikni kuchaytirishga qaramay, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlar darajasi yuqoriligicha qolmoqda. Ko'pgina jabrlanuvchilar qo'rquv, uyat yoki huquqiy tizimga ishonchsizlik tufayli yordam so'rashga jur'at etmaydilar, bu esa bunday jinoyatlarni aniqlash va tergov qilishni sezilarli darajada murakkablashtirishiga sabab bo'ladi. Mazkur sanab o'tilganlar bu kabi jinoyatlarning

**Citation:** Murodillo K. KATTAKULOV . .  
*LEGAL WORLD* 2025, 1, 85–92. <https://>

Received: 10.01.2025

Revised: 18.01.2025

Accepted: 25.02.2025

Published: 10.03.2025

**Copyright:** © 2025 by the authors.  
Submitted to *LEGAL WORLD* for possible  
open access publication under the terms  
and conditions of the Creative Commons  
Attribution (CC BY) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>).

oldini olish va samarali fosh etishga qaratilgan yangi usullarni ishlab chiqish zarurligidan dalolat beradi.

## 2. Materials and Methods: (Materiallar va usullar)

A.A.Bimbinov o'z tadqiqotida jinsiy ehtiyojning tabiiyligi to'g'risida to'xtalib, "inson murakkab tashkil etilgan biosotsial mavjudotdir, uning xatti-harakati bir paytning o'zida ham biologik omillarga (fiziologik ehtiyojlar), ham biologik bo'lmagan omillarga (madaniyat, shaxsiy e'tiqod, dunyoqarash va boshqalar) bog'liq" (3), deya izohlaydi. Uning fikricha, jinsiylik bu omillar orasida alohida o'rin tutadi va inson tanasining tug'ma ehtiyoji hisoblanadi, keyinchalik u individual hayotiy tajriba asosida shakllanadi.

A.A.Bimbinovning ta'kidlashicha, "bu omillar orasida jinsiylik alohida o'rin tutadi. Nafas olish va ovqat hazm qilish jarayonlari bilan bir qatorda, bu inson tanasining tug'ma ehtiyojidir. Inson ma'lum bir fiziologik jinsiy salohiyat bilan tug'iladi, keyinchalik u individual hayotiy tajriba doirasida shakllanadi. Shuning uchun insonning shahvoniyligi biologik, aqliy va ijtimoiy-madaniy xususiyatlarning o'zaro ta'siri bilan bog'liq" [3], degan qarashlar bilan mavzuga boshqa tomondan yondashadi. Chuqur psixologik tahlil inson harakatlarining muhim darajasida yashirin jinsiy moyillikni ochib beradi. Ushbu harakatlarning aksariyati qonuniy harakatlardir, ammo ayrimlarida jinoyatning barcha tarkibiy elementlarini o'z ichiga olganlar ham mavjud.

A.A.Bimbinovning yondashuvi biologik, psixologik va sotsiomadaniy omillarning o'zaro ta'siri orqali insonning jinsiylikni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bir tomondan, bu insonning jinsiy ehtiyojlari va ularning xatti-harakatiga ta'sirini tushunishga yordam beradi. Boshqa tomondan, bunday yondashuv jinsiy munosabatlarni tartibga soluvchi madaniy va ijtimoiy me'yorlarni yetarlicha hisobga olmasligi mumkin va jinsiy jinoyatlar holatlarini har doim tushuntirib bera olmaydi. Qolaversa, boshqa qator olimlar jinsiy jinoyatlar tushunchasi va ijtimoiy mohiyatini aniqlashga harakat qilishgan. Misol uchun, Ya.M.Yakovlev jinsiy jinoyatlar – jinsiy axloq tamoyillarini buzadigan xatti-harakatlar, deb hisoblaydi va bu boradagi bir qator prinsiplarni sanab o'tadi:

- jinsiy aloqalar faqat turli jinsdagi subyektlar o'rtasida sodir bo'lishi mumkin;
- jinsiy aloqa subyektlari aqliy va jismoniy yetuklikka erishishlari kerak;
- jinsiy aloqalar ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro sevgi va hurmat tamoyillariga asoslanishi kerak;
- jinsiy aloqalar teng huquqlilik va eng muhimi ixtiyoriy bo'lishi kerak;
- moddiy manfaat sababli jinsiy aloqaga kirishga yo'l qo'yilmaslik;
- nikoh bunday munosabatlarning afzal shaklidir (4).

Y.M.Yakovlev jinsiy munosabatlardagi axloqiy tamoyillar va ijtimoiy yetuklikni muhim deb biladi. Uning yondashuvi jinsiy jinoyatlarning oldini olishga yordam beradigan aniq chegaralarni belgilashga yordam beradi. Biroq, uning an'anaviy me'yorlarga urg'u berish va bir jinsli munosabatlarni chetlatishi zamonaviy sharoitlarda diskriminatsion deb qabul qilinishi mumkin, chunki bugungi kunda barcha odamlarning huquqlarini tan olish va hurmat qilish katta ahamiyatga ega.

A.N.Ignatov, A.A.Gersenzon singari jinoyatning axloqsizlik kabi belgisini ajratib ko'rsatdi va jinsiy jinoyatlarga ta'rif berar ekan, axloqiy tamoyil asoslarini buzishda ifodalanuvchi axloq me'yorlarini qo'pol ravishda buzish, deb hisoblaydi va shu bilan u ijtimoiy munosabatlarning maxsus guruhini "jinsiy axloq" ajratib ko'rsatdi (5).

A.N.Ignatov va A.A.Gersenzonning yondashuvi jinsiy jinoyatlarning axloqiy jihatini yoritib beradi, bu jinoyatlarni jamiyat uchun ayniqsa zararli deb ko'rsatadi. Bu ijtimoiy me'yorlarni shakllantirish va ularga rioya qilishga yordam beradi. Biroq bunday ta'rif insonning jinsiylik va jinsiy xatti-harakatlarga ta'sir etuvchi omillarning murakkabligini yetarlicha hisobga olmasligi mumkin.

Boshqa bir olimlar esa, jinsiy jinoyatlarning ijtimoiy mohiyatini tushunishning ikki asosiy yo'nalishini ajratib ko'rsatadilar:

- 1) jinsiy axloq normalarini buzish;
- 2) shaxs manfaatlarining buzilishi (6).

Voyaga yetmaganlarning jinsiy erkinligi va jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyatlarni tahlil qilar ekanmiz, jinoiy, fuqarolik va mehnat qonunchiligi doirasida "voyaga yetmagan" atamasining qiyosiy

tahlili, voyaga yetmaganlarning huquqiy maqomi va huquqning turli sohalarida manfaatlarini himoya qilishdagi farqlarni aniqlashga imkon beradi.

Jinoyat qonunchiligida "voyaga yetmagan" atamasi javobgarlik yoshiga yetmaganlarni (18 yoshgacha) va maxsus huquqiy kafolatlar tatbiq etiladigan shaxslarni nazarda tutadi.

Voyaga yetmaganlarga jazo tayinlash masalalari: mamlakat qonunchiligiga binoan, ma'lum bir yoshga to'lmagan shaxslar (14-16 yosh; 16-18 yosh) yengilroq jazolar yoki tarbiyaviy ta'sir choralarini nazarda tutuvchi normalar bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Jinoiy javobgarlik yoki jazodan ozod qilish: "ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan voyaga yetmagan shaxs, agar sodir etgan qilmishining xususiyatlari, aybdorning shaxsi va ishning boshqa holatlarini e'tiborga olib, uni jazo qo'llamasdan turib ham tuzatish mumkin degan xulosaga kelinsa, javobgarlikdan ozod qilinib, ish bolalar masalalari bo'yicha komissiyada ko'rishga topshirilishi mumkin".

Fuqarolik huquqida "voyaga yetmagan" atamasi to'liq huquqiy layoqatga ega bo'lmagan shaxslarning huquqiy maqomini belgilaydi. Fuqarolik huquqining asosiy jihatlari quyidagilarda ko'rinadi:

Huquq layoqati: voyaga yetmaganlar fuqarolik munosabatlari sohasida cheklangan huquq va majburiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, ular faqat ota-onalari yoki vasiylarining ruxsati bilan bitimlar tuzishlari mumkin.

Vasiylik va homiylik: voyaga yetmaganlar uchun bitimlar va huquqiy munosabatlarda o'z manfaatlarini himoya qilish uchun vasiylik yoki homiylik belgilanishi mumkin.

Mehnat qonunchiligida "voyaga yetmagan" atamasi mehnat munosabatlarining huquqiy yoshiga yetgunga qadar mehnat munosabatlari bilan shug'ullanadigan shaxslarning huquqiy maqomini belgilaydi. Mehnat qonunchiligining asosiy jihatlari:

Ishga joylashish bo'yicha cheklovlar: voyaga yetmaganlar uchun qat'iy yosh cheklovlari va bajariladigan ish turlari mavjud. Ish beruvchilar voyaga yetmaganlarni og'ir va zararli mehnat sharoitlaridan himoya qilishga qaratilgan qoidalarga rioya qilishlari shart.

Ish vaqti va dam olish: voyaga yetmaganlar ish vaqtini qisqartirish, muntazam tanaffuslar va ish joyidagi ekspluatatsiyadan himoya qilish huquqiga ega. Shunday qilib, huquqning turli sohalarida "voyaga yetmagan" atamasi voyaga yetmaganlarni himoya qilish va ijtimoiy integratsiyaga qaratilgan o'ziga xos xususiyatlar va talablarga ega. Jinoyat, fuqarolik va mehnat qonunchiligi tegishli huquqiy munosabatlarda ushbu toifadagi fuqarolarning huquqiy maqomi va manfaatlarini himoya qilishni ta'minlaydigan turli choralar va qoidalarni nazarda tutadi.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinsiy jinoyatlar quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

1. Yuqori latentligi (7): voyaga yetmaganlarni nomusga tegish holatlarining aksariyati ochilmagan jinoyatlar, chunki jabrlanuvchilar ko'pincha holat to'g'risida xabar berishdan qo'rqishadi yoki uyalishadi.

2. Isbotlash protsessining qiyinligi [8]: bunday jinoyatlarda aybni isbotlash guvohlarning yetishmasligi, shuningdek jabrlanuvchining psixologik holati tufayli qiyin bo'lishi mumkin, bu uning guvohlik berishini qiyinlashtiradi.

3. Jabrlanuvchi uchun og'ir oqibatlariga sabab bo'lishi [9]: voyaga yetmaganlarning nomusiga tegish jiddiy ruhiy jarohat, jinsiy kasalliklar, shuningdek, yakkalanish va begonalashuv kabi ijtimoiy muammolarga olib kelishi mumkin.

4. Residiv xavfining yuqoriligi [10]: voyaga yetmaganlarning nomusiga tekkan jinoyatchilar kelajakda shunga o'xshash jinoyatlarni sodir etish xavfi ortishi.

Yuridik adabiyotlarda keltirilishicha, voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan nomusga tegish jinoyatining bevosita obyekt bo'lib ularning jinsiy erkinligi hisoblanmaydi, chunki jinsiy erkinlik bu boshqa odamning shaxsiyatiga nisbatan jinsiy hissiyotlarini qondirishga imkon berish yoki yo'l qo'ymaslik bilan izohlanadi [11]. Shunday ekan hali jismonan, ya'ni fiziologik va intellektual rivojlanishi nihoyalangan bolalar va o'smirlar jinsiy erkinlikka ega bo'lolmaydilar.

### **3. Results: (Tadqiqot natijalari)**

"Jinsiy erkinlik" va "jinsiy daxlsizlik" kabi tushunchalar inson huquqlari va ijtimoiy-madaniy me'yorlar negizida chuqur ahamiyatga ega bo'lgan ikkita muhim tushunchalardir. "Jinsiy erkinlik"

har bir insonning jinsiy xulq-atvori va o'zini namoyon qilish sohasida o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini aks ettiradi. Masalan, jinsiy aloqada bo'lish huquqi, sheriklarni tanlash va boshqalar kiradi. Jinsiy erkinlik ham umumiy inson huquqlarining ajralmas qismidir. "Jinsiy daxlsizlik" esa o'z tanasini tajovuzlardan yoki zo'ravonlikdan himoya qilish huquqini anglatadi. Bunga jinsiy zo'ravonlikning har qanday shaklini taqiqlash va shaxsiy doirasiga noqonuniy aralashishlarni misol qilsak bo'ladi.

Tahlillar asosida aytish mumkinki, jinsiy erkinlik va jinsiy daxlsizlik bir-biri bilan chambarchas bog'liq va bir-birini to'ldirib turadi. Jinsiy erkinlik jinsiy sohada o'zini namoyon qilish va o'z taqdirini o'zi belgilash uchun asos bo'lib, jinsiy daxlsizlik xavfsizlikni ta'minlash va shaxsiy chegaralarni himoya qilish uchun zaruriy shartdir. Bu ikkala jihat ham jamiyatda adolat, tenglik va har bir shaxsga hurmatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Zo'ravonlik jinoyatlarida motiv va maqsadni shakllantirish va amalga oshirishda voyaga yetmaganlar va yoshlarning psixologik xususiyatlari katta ahamiyatga ega. Ushbu xususiyatlar ijtimoiy muhit, yashash sharoitlari va tarbiya bilan o'zaro ta'sir qiladi, bu esa tajovuzkor xatti-harakatlarning namoyon bo'lishiga va voyaga yetmaganlarning huquqlarini buzilishiga kompleks ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, bu borada voyaga yetmaganlar va kattalar o'rtasida sezilarli tafovutlar mavjud va ular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- irodasining yetarli rivojlanmaganligi;
- salbiy ta'sirlarni qabul qilishning o'ta yuqoriligi;
- impulsivlik;
- antisotsial elementlarning zararli ta'siriga, shu jumladan "yuqumlilik taqlid qilish, qo'zg'atish, jalb qilish shaklida osonroq ta'sir qilishligi.

M.A.Gorbachevning fikricha "Jinsiy erkinlik bu, insonning mustaqil ravishda, hech qanday majburlashsiz, o'z jinsiy manfaatlarini amalga oshirish, boshqalarning xuddi shunday manfaatlariga tajovuz qilmasdan jinsiy ehtiyojlarini qondirish huquqidir [12].

A.P.Dyachenkoning fikriga ko'ra, «jinsiy erkinlik — bu shaxsning jamiyatdagi jinsiy munosabatlar tartibiga asoslangan subyektiv huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlar majmuasidir». Shaxsning jinsiy daxlsizligi «bu holatda jinsiy erkinlikka ega bo'lmagan shaxslar bilan jinsiy munosabatlarga kirishishning ma'naviy va huquqiy taqini anglatadi, chunki bunday shaxslar o'zlariga nisbatan sodir etilayotgan jinsiy harakatlarning ahamiyati va oqibatlarini tushunish yoki jinsiy sohada o'z harakatlarini boshqarish qobiliyatiga ega emas» (13).

Jinsiy erkinlik — bu aqli raso, 16 yoshga to'lgan shaxsning huquqidir. 16 yoshga to'lmagan shaxslar va o'zlariga nisbatan sodir etilayotgan harakatlarning xususiyati va ahamiyatini anglash va aybdorga qarshilik ko'rsatishga qodir bo'lmagan shaxslar uchun, nomusga tegish jinoyatining obyekti esa jinsiy daxlsizlik bo'lib, u boshqa shaxslarning jinsiy tajovuzidan himoya qilinganlik holatining ijtimoiy imkoniyatidir (14).

Mazkur tushunchalarga ta'rifni yanada aniqlashtirishga qaratilgan harakatlar, ayniqsa, voyaga yetmaganlarga qarshi jinsiy jinoyatlarda tajovuz obyekti masalasi bugungi kungacha munozarali bo'lib qolayotganligi mavzuning yanada dolzarbligidan dalolat beradi. Demak, aytish mumkinki, voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinsiy jinoyatlarning obyekti bo'lib – jinsiy daxlsizligi hisoblanadi. Ya'ni, voyaga yetmaganlarga qarshi jinoyat sodir etganda, jinoyatchi hech qanday holatda uning jinsiy ehtiyojlarini qondirishda sherik bo'la olmasligini biladi.

Aynan shunday fikrni L.V.Loginova, Sh.S.Rashkovskaya kabi huquqshunoslar ham ta'kidlab, mazkur turdagi jinoyatlarda o'n olti yoshga to'lmagan shaxslarning jinsiy daxlsizligini buzadigan jamoat manfaatlariga tajovuz qilinadi [15], deydi.

O'n to'rt, o'n olti yoshga to'lmagan shaxslarga, shuningdek, voyaga yetgan jabrlanuvchilarga nisbatan amalga oshirilgan jinsiy zo'ravonlik jinoyatlari ijtimoiy xavfliligi jihatidan sezilarli farqlarga egaligi mavzuning dolzarbligini ko'rsatib beradi. Boshqa mualliflarning fikriga ko'ra, huquqiy tartibga solishdagi asosiy muammolardan biri bu voyaga yetmaganlarga qarshi jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan qonunchilikdagi bo'shliqlardir, ya'ni davlatlarning qonunchiligida ushbu jinoyatlarning oldini olishni nazarda tutuvchi aniq normalar mavjud emas, bu esa bunday huquqbuzarliklar aniqlanganda vaziyatni yanada murakkablashtiradi (16). Amaliyotda, zo'ravonlik qurboni bo'lgan voyaga yetmaganlarning 85 foiz dan ortig'i sodir bo'lgan voqeani yashirishni afzal ko'rishadi. Bu, jinoyatchidan qo'rqish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ishonchsizlik, uyat va ijtimoiy bosim kabi omillar bilan bog'liq. Bunday bolalarga yordam ko'rsatish va ularni qo'llab-quvvatlash

mexanizmlarining yo'qligi muammoni yanada og'irlashtiradi. Masalan, qonunchilikda zo'rvonlik belgilarini erta aniqlash yoki voqea haqida xavfsiz xabar berish imkoniyatini beradigan qo'llab-quvvatlash tizimlari aniq belgilanmagan. Shuningdek, pedagoglar va ijtimoiy xizmat xodimlari uchun zo'rvonlik belgilarini o'z vaqtida aniqlash va bolalarni himoya qilish uchun zarur choralarini ko'rish imkoniyatini beruvchi maxsus o'quv dasturlari yetarli emas. Huquqiy tartibga solishdagi bu bo'shliq darhol e'tibor va kompleks yondashuvni talab qiladi, bu esa profilaktika choralarini hamda zo'rvonlik qurbonlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Faqatgina ehtimoliy zo'rvonlik holatlarini oldini olishni nazarda tutuvchi qonunchilik normalarini yaratish va joriy etish lozim emas, balki oila va maktabdan tortib, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ijtimoiy xizmatlarga barcha darajalarda voyaga yetmaganlarni himoya qilish va qo'llab-quvvatlash choralarini ta'minlash lozim.

O'zbekiston Respublikasining JK to'rtinchi bo'limi «Jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar» deb nomlangan. Afsuski, zamonaviy jamiyatda nomusga tegishning qurboni nafaqat kattalar va ruhiy jihatdan sog'lom ayollar, balki yosh bolalar va o'zlariga nisbatan sodir etilayotgan harakatlarning xususiyati va ahamiyatini tushuna olmaydigan hamda aybdorga qarshilik ko'rsata olmaydigan voyaga yetmagan, o'smirlar ham duchor bo'lmoqda, ular esa yuqorida ta'kidlanganidek, jinsiy erkinlik huquqiga ega emaslar.

Xuddi shunday tuzilishni Rossiya Federatsiyasi, Belarus, Qirg'ziston, Tojikiston Respublikalari Jinoyat kodekslarida "Shaxsning jinsiy daxlsizligi va jinsiy erkinligiga qarshi jinoyatlar" bo'limi ko'rinishida mustahkamlanganligini ko'rishimiz mumkin.

Bu xususida olimlarning fikrlari mavjud, xususan shaxsning jinsiy daxlsizligi va jinsiy erkinligiga qarshi jinoyatlarni dissertatsiyada doirasida tadqiq etgan huquqshunos R.M.Kochetovning fikriga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida, aksincha, faqat jinsiy erkinlik bo'lim nomi bilan ifodalangan – ehtimol qonun chiqaruvchi jinsiy daxlsizlikni jinsiy erkinlik deb atalgan kengroq huquqiy toifaning bir qismi deb hisoblaydi – va ijtimoiy munosabatlar tuzilishida jinsiy erkinlik, mos ravishda, o'z doirasiga jinsiy daxlsizlikni ham qamrab oladi deb hisoblaydi" (17). Bu borada yana bir olim V.P.Konyaxinnig fikrlari ham shunga yaqin, ya'ni u ham jinsiy erkinlikni kengroq tushuncha sifatida hisoblaydi va jinsiy daxlsizlik jinsiy erkinlikning elementi, shuningdek, ayni paytda uning kafolati hisoblanadi, deb ta'kidlaydi va shuning uchun, muallif, jinsiy daxlsizlikka tajovuz qilish jinsiy erkinlikni buzadi [18], deya xulosa qiladi.

Demak, V.P.Konyaxin jinsiy daxlsizlik jinsiy erkinlikning bir qismi ekanligini va birinchisi buzilganda ikkinchisi ham buzilishini ta'kidlaydi. Bu bilan, olim jinsiy daxlsizlikni muhim element sifatida aniqlashtiradi, bu esa, uni yaxshiroq himoya qilishga yordam beradi. Biroq fikrimizcha, jinsiy erkinlik tushunchasi aniq bo'lmay qolishi mumkin, chunki uning barcha elementlari yetarlicha himoya qilinmasligi mumkin.

Yana bir olimning qarashlari o'rinli, ya'ni «jinsiy erkinlik – bu har qanday shaxsning tug'ilishidan boshlab, yoshi, ruhiy holati yoki boshqa ijtimoiy-demografik xususiyatlaridan qat'iy nazar, boshqa shaxslarning qonun bilan himoyalangan huquqlari va manfaatlariga tajovuz qilmagan holda, o'z xohishiga ko'ra jinsiy ehtiyojlarini qondirish uchun berilgan ajralmas huquqdir» [19]. Demak, jinsiy erkinlik asosiy huquq sifatida qaraladi, uni himoya qilish va boshqalarning huquqlarini buzmasdan amalga oshirish kerak. Zero, qonunlarga rioya qilish va boshqalarning huquqlarini himoya qilish muhimligini ta'kidlaydi, bu jamiyatdagi uyg'unlikka yordam beradi. Biroq, aytish kerakki, bu erkinlikni amalda qo'llash chegaralarini aniqlash qiyin bo'lishi mumkin, ayniqsa, turli madaniy va ijtimoiy normalar kontekstida.

A.V.Korneeva jinsiy erkinlikni ta'riflab, buni shaxsning o'z xohishiga ko'ra kim bilan va qanday qilib o'zining jinsiy istaklarini qondirish huquqi deb ta'kidlaydi. Jinsiy erkinlikning moslik mezonlari va chegaralarini jinsiy harakatlar qilingan shaxsning o'zi belgilaydi va aynan shu shaxs jinsiy erkinligi buzilgan yoki yo'qligini mustaqil ravishda hal qiladi [20], deb hisoblasa, boshqa tomondan, A.N. Ignatov jinsiy daxlsizlik haqida gapirganda, uni faqat o'z ahvolda bo'lgan va sodir bo'layotgan voqealarning haqiqiy ijtimoiy ahamiyatini anglamaydigan shaxsga nisbatan aytish mumkin, deb hisoblaydi. Masalan, ruhiy holati buzilgan yoki jinsiy yetuklikka yetmagan voyaga yetmagan shaxslarni bunga misol qiladi [21].

Bir qator izohli lug'atlarda mazkur atamalarga quyidagicha ta'riflar berilganligini ko'rishimiz mumkin: daxlsizlik – bu "har qanday xavf yoki tajovuzdan himoya etilganlik" (22), «har qanday

tajovuzlardan kafolatlanganligidir (23) », daxlsiz – “hech kim daxl qila olmaydigan, har qanday qasd yoki tajovuzdan himoya qilingan yoki qilinadigan; buzilmas” (22), «yaxlit butunlikda saqlanadigan, kimningdir tajovuzidan himoyalangan»(24), «kimningdir tajovuzidan qonun himoyasida bo‘lgan» (25), erkinlik esa – “biron jihatdan cheklanish, tazyiq va shu kabilardan xolilik; kishining o‘z istagi bo‘yicha ish tutishi” (26), «subyektning tabiat va jamiyat rivojlanish qonunlarini anglab yetish asosida o‘z irodasini namoyon etish imkoniyati; mustaqillik, ijtimoiy-siyosiy hayot va faoliyatni biror bir sinf, butun jamiyat yoki uning a‘zosini bog‘lovchi cheklovlar va to‘siqlarsiz amalga oshirish demakdir (27).

Professor M.X.Rustambaevning ham fikrlariga qo‘shilmaslik mumkin emas, xususan u «nomusga tegish jinoyatining bevosita obyekti» tushunchasini quyidagicha talqin etadi: aynan nomusga tegish jinoyatining obyekti jabrlanuvchining jinsiy erkinligidir, ya‘ni uning ayrim shaxslarga jinsiy ehtiyojini u bilan qondirishiga har bir alohida holatda ruxsat berish yoki ruxsat bermaslikka majbur qilishdan ozodligidir”, deya ta‘rif bergan (28). Bundan tashqari, professor F.Taxirov ham ushbu turdagi jinoyatlarni dissertatsiya doirasida tadqiq etgan va mavzuni yetarli darajada o‘rgangan olim sifatida jinsiy erkinlikka quyidagicha ta‘rifini bergan: “Voyaga yetgan shaxslar o‘z xohishlariga ko‘ra boshqa shaxslar bilan jinsiy aloqaga kirishish yoki kirishmaslikka haqlidirlar. Hech kim insonni bu sohada o‘zi istamagan xatti-harakatlar qilishga majburlashi mumkin emas. Bu erkinlik, ya‘ni jinsiy muhitda shaxsning normal yashash imkoniyati, insonlar o‘rtasidagi muomala jarayonida ijtimoiy munosabat xususiyatiga ega bo‘ladi. Shunday qilib, har bir voyaga yetgan shaxs o‘z irodasini ifodalash erkinligiga ega. Zotan, bu erkinlik jinsiy erkinlikka ham taalluqlidir” (29). Katolik cherkovlarida bu masala o‘zgacha talqin etiladi. Mazkur mavzu dunyo miqyosida turli olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo‘lib, jinsiy zo‘ravonlikning o‘ziga xususiyatlari bir qator nemis olimlari tomonidan quyidagicha tahlil etilgan: - ruhoniylar tomonidan sodir etilgan jinsiy zo‘ravonlik jinoyatlari, boshqa mahkumlar sonidan kam emasligi; - ruhoniylar tomonidan jinsiy zo‘ravonlik jinoyatlari davomiyligining uzoqligi; - jabrlanuvchilar orasida erkak jinsi vakillarining nisbatan ko‘pligi; - cherkovlarning ruhoniylar tomonidan sodir etilgan jinsiy zo‘ravonlik haqidagi ma‘lumotlarni yashirishga harakatining kuchliligi (30) kabilar. Yuqoridagi kabi tadqiqotlarni yana qator olimlar (31) ham o‘rganishgan va ularning qarashlari deyarli bir-birini inkor etmaydi.

#### 4. Discussion (Muhokama)

Yuqoridagi barcha ta‘riflarni umumlashtirgan holda, "jinsiy erkinlik" va "jinsiy daxlsizlik" tushunchalarini tushunishdagi farqlarni, ularni aniqlash mezonlari o‘rtasidagi tafovutlarni bartaraf etish, mazkur tushunchalarni amaliyotda to‘g‘ri qo‘llanilishiga erishish maqsadida, ushbu ta‘riflarni O‘zbekiston Respublikasining Oliy sud Plenumining 2010-yil 29-oktabrdagi “Nomusga tegish va jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirishga doir ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida” qarorida belgilash zarur deb hisoblaymiz va uni quyidagi mazmunda taklif etamiz: “O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 18-bobi mazmunida jinsiy daxlsizlik deganda, u o‘zining fiziologik, jismoniy yoki ruhiy holati (jismoniy nuqsoni, ruhiyati buzilganligi, o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan (kichik yoshdagi bolalar) yoki keksaligi, qattiq og‘riq yoki behushlik holati, alkogol, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar ta‘sirida o‘ta mastlik holati)ga ko‘ra o‘zini o‘zi himoya qilish, aybdorga faol qarshilik ko‘rsatish yoki o‘ziga nisbatan sodir etilayotgan harakatlar xususiyati va mohiyatini tushunish yoki o‘z harakatlarini boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lmagan shaxslarga nisbatan jinsiy xarakteridagi har qanday tajovuzlarning yo‘l qo‘yilmasligi tushuniladi.

Jinsiy erkinlik deganda esa, har bir shaxsning o‘z jinsiy hayotini mustaqil ravishda belgilash, o‘z jinsiy ehtiyojlarini qondirish uchun hamkor tanlash va jinsiy munosabatlar shartlari va chegaralarini o‘rnatish huquqidir. Jinsiy erkinlik boshqa shaxslarning qonuniy huquq va manfaatlarini buzmaganda holda va jamiyatning axloq va huquq normalariga zid bo‘lmagan holda, shaxsning xohishiga ko‘ra jinsiy harakatlarni amalga oshirish imkoniyatini o‘z ichiga oladi. Jinsiy erkinlikni amalga oshirishda qonun talablari va jamiyatdagi umumiy qabul qilingan axloqiy me‘yorlarga rioya qilinishi lozim”.

Shuningdek, voyaga yetmaganlarni nomusiga tegish bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olish quyidagi profilaktik choralarni o‘z ichiga olishi kerak: \* Ta‘lim-tarbiya: tahdid qanday aniqlash, o‘zini qanday himoya qilish va qanday yordam so‘rash haqidagi ma‘lumotlardan iborat bo‘lgan bolalar va o‘smirlar uchun jinsiy zo‘ravonlik bo‘yicha o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va o‘tkazish. \*

Ota-onalar bilan ishlash: jinsiy zoʻravonlik jinoyatlari, shuningdek, bolalar va oʻsmirlarni tarbiyalash toʻgʻrisida ota-onalar va oʻqituvchilar ishtirokida konferensiyalari va treninglarini oʻtkazish.

\* Ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash tizimini rivojlantirish: jinsiy zoʻravonlik qurbonlarini ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash tizimini yaratish, shu jumladan psixologik yordam, huquqiy maslahat va reproduktiv yordami.

\* Huquqbuzarlar bilan ishlash: residiv xavfini kamaytirish maqsadida jinsiy jinoyatlar sodir etgan huquqbuzarlarni rehabilitatsiya qilish va qayta ijtimoiylashish dasturlarini oʻtkazish.

## 5. Conclusions: (Xulosalar)

Mazkur maqolada voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zoʻravonlik jinoyatlari bilan bogʻliq muammolar kompleks tahlil qilindi. Voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligi va erkinligini muhofaza qilish ijtimoiy, psixologik va huquqiy masalalar bilan chambarchas bogʻliq. Jinoyatlar jamiyat uchun yuqori xavfli boʻlib, ularning qurbonlariga jismoniy va ruhiy zarar yetkazadi. Maqoladagi tahlillar shuni koʻrsatadiki, voyaga yetmaganlarning ruhiy yetukligi va ijtimoiy sharoiti ularga nisbatan sodir etilgan tajovuzlarni fosh etish va huquqiy himoyani taʼminlash jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Ilgʻor qonunchilik va profilaktik choralar voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligini taʼminlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kabi jinoyatlarning oldini olishda faqatgina huquqiy choralar bilan cheklanib qolmay, ijtimoiy strategiyalarni ham ishlab chiqish zarur. Bunda bolalarni himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish, oʻqituvchilar, psixologlar va ijtimoiy xizmat xodimlarini maxsus tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar va jamiyat aʼzolari bilan ishlash hamda bolalarga oʻz huquqlarini bilish va himoya qilish koʻnikmalarini berish zarur.

Shuningdek, maqolada jinsiy zoʻravonlik jinoyatlarining oldini olishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar tahlil qilindi. Ushbu sohada qonunchilikni kuchaytirish bilan bir qatorda, bolalarga va oʻsmirlarga yordam koʻrsatish hamda ularni psixologik jihatdan qoʻllab-quvvatlash tizimini yaratish lozim.

### Author Contributions:

#### Murodillo Kattaqulov

– Ishning barcha jihatlarini uchun javobgar boʻlishga rozilik bildirilgan va taqdim etilgan tadqiqot ishining har qanday qismini puxta va vijdonan bajarish bilan bogʻliq masalalar oʻrganilgan va hal qilingan.

**Funding:** Tadqiqot ishi moliyalashtirilmagan.

**Institutional Review Board Statement:** Tadqiqot ishi barcha standartlarga muvofiq amalga oshirilgan. Tadqiqot protokoli axloqiy qoʻmita tomonidan tasdiqlangan

**Informed Consent Statement:** Tadqiqotda boshqa mualliflar ishtirok etmagan

**Data Availability Statement:** Tadqiqotda taqdim etilgan asl materiallar maqolaga kiritilgan. Muallifga qoʻshimcha soʻrovlar yuborilishi mumkin.

**Conflicts of Interest:** Manfaatlarni toʻqnashuvi yuzaga kelmagan.

## References: (Adabiyotlar)

1. Economist Intelligence Unit. (2021). Safety cities index 2021. Retrieved June 20, 2022, from <https://safecities.economist.com/wp-content/uploads/2021/08/Safe-Cities-Index-2021-jp.pdf>.
2. Roman, C.G., Travis, J. (2004). Taking stock: Housing, homelessness, and prisoner reentry. Washington, DC: Urban Institute, Justice Policy Center.
3. Bimbinov A.A. Nenasilstvennie polovie prestupleniya. Avto.kand.yurid.nauk. Moskva, 2015. S.30 // <https://www.dissercat.com/content/nenasilstvennyye-polovye-prestupleniya>
4. Yakovlev Ya.M. Polovie prestupleniya. Dushanbe: Irfon, 1969. S. 20-21.
5. Ignatov A.N. Otvetstvennost za prestupleniya protiv nravstvennosti (polovie prestupleniya). M.: YUrid. lit, 1966. S. 12; (208) On je. Kvalifikatsiya polovix prestupleniy. M., 1974. S. 4-5.
6. Avdalyan A.Ya. Preduprezhdenie prestupleniy protiv polovoy neprikosnovennosti nesovershennoletnix: ugovovno-pravovoy i kriminologicheskoy aspekti (komparativistskoe issledovanie). Avto.kand.yurid.nauk. Tomsk, 2015. S. 24 // <https://www.dissercat.com/content/preduprezhdenie-prestupleniy-protiv-polovoi-neprikosnovennosti-nesovershennoletnikh-ugolovno>